



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№7(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 90 sahifa,
25-iyul, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Imkoniyati cheklangan talabalarda jismoniy sifatlarni sport mashg'ulotlari yordamida rivojlantirishning afzalliklari	8
Davronov Rustam Iloxovich	
Использование фонетических игр и современных технологий в обучении русскому языку в общеобразовательных школах Узбекистана	15
Абумалик Муталлиевич Дедаханов	
Maktablarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni isloh qilish muammo va yechimlar	20
Qudratov O'ktam G'ofurovich	
The Role of Motivation in Learning English	25
Kamoldinova Mushtariybonu Azizbek qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim muhitini boshqarishning ijtimoiy-pedagogik asoslari	30
Axrarova Gulrux Gulamkadirovna	
Bo'lajak logopedlarda metakognitiv-dagnostik kompetentlikni rivojlantirishning xorijiy va milliy tajribasi	37
Suvankulova Shaxnoza Karimkulovna	
Ingliz tili darslarida individual va pragmatik yondashuvni amalga oshirish texnologiyalari	43
Yuldasheva Dilnoza Bobojonovna	
Talabalarining texnologik fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishning tarkibiy komponentlari	48
Kushbakova Barno Batirkulovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni joriy etishda ijtimoiy hamkorlik va jamoatchilik fikrini shakllantirish	54
Arslanova Madinaxon Mansurovna	
O'quvchi-yoshlarga axloqiy ta'lim-tarbiya berishda qoraqalpoq dostonlarining ahamiyati	59
Esemuratova Turganbike Aytmuratovna	
Talaba markazli yondashuv asosida ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish samaradorligi	63
Narzullayeva Firuza Olimovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 5-6 yoshdagi bolalarni kasbga yo'naltirish bo'yicha metodik xizmatni takomillashtirish	67
Rizayeva Munisxon Maxkamovna	
Generativ sun'iy intellekt vositalarining ta'lim jarayonidagi pedagogik imkoniyatlari	71
Shodiyev Azizbek Olim o'g'li	
Shaxs kamolotida psixologik salomatlikning ahamiyati va asosiy ko'rsatkichlari	76
Xolova Yulduz Erkinovna	
Zamonaviy ta'lim paradigmasida fizika fanini o'qitish: virtual va to'ldirilgan borliq hamda sun'iy intellekt texnologiyalarining integrativ metodikasi	83
Zuhriddinov Farrux Faxriddin o'g'li	
Event ta'lim texnologiyasi vositasida talabalarining o'qish samaradorligini oshirish	87
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi	



O'QUVCHI-YOSHLARGA AXLOQIY TA'LIM-TARBIYA BERISHDA QORAQALPOQ DOSTONLARINING AHAMIYATI

Esemuratova Turganbike Aytmuratovna

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti,
"Umumiy pedagogika" kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada qoraqalpoq xalq dostonlarining o'quvchi-yoshlarga axloqiy ta'lim-tarbiya berishdagi pedagogik ahamiyati tahlil qilingan. Dostonlarda aks etgan vatanparvarlik, insonparvarlik, halollik, jasorat, mehnatsevarlik va milliy qadriyatlarning yoshlar ma'naviy-axloqiy kamolotini shakllantirishdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, qoraqalpoq xalq dostonlaridan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanishning samarali shakl va usullari hamda ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish imkoniyatlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: qoraqalpoq xalq pedagogikasi, qoraqalpoq dostonlari, axloqiy tarbiya, o'quvchi-yoshlar, milliy qadriyatlar, xalq og'zaki ijodi, vatanparvarlik, ma'naviy tarbiya.

Abstract: This article analyzes the pedagogical significance of Karakalpak folk epics in providing moral education to school-aged youth. It examines the role of values reflected in the epics, such as patriotism, humanity, honesty, courage, diligence, and national traditions, in shaping students' moral and spiritual development. The study also substantiates effective forms and methods of using Karakalpak folk epics in the educational process and highlights the possibilities of integrating them with modern pedagogical technologies.

Key words: Karakalpak folk pedagogy, Karakalpak epics, moral education, students, national values, folklore, patriotism, spiritual education.

Аннотация: В данной статье рассматривается педагогическое значение каракалпакских народных эпосов в нравственном воспитании учащейся молодежи. Проанализирована роль таких нравственных качеств, как патриотизм, гуманизм, честность, мужество, трудолюбие и национальные ценности, отраженных в эпосах, в формировании духовно-нравственного развития личности. Также обоснованы эффективные формы и методы использования каракалпакских народных эпосов в образовательном процессе и возможности их интеграции с современными педагогическими технологиями.

Ключевые слова: каракалпакская народная педагогика, каракалпакские эпосы, нравственное воспитание, учащаяся молодежь, национальные ценности, устное народное творчество, патриотизм, духовное воспитание.

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. O'quvchi-yoshlarda yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirishda xalqning asrlar davomida to'plagan ma'naviy merosi, ayniqsa, xalq og'zaki ijodi namunalari muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Qoraqalpoq xalqining boy madaniy merosida alohida o'rin tutuvchi dostonlar yosh avlodni vatanparvarlik, insonparvarlik, mardlik, halollik, mehnatsevarlik, ota-onaga hurmat va milliy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalashning samarali vositasi hisoblanadi. Dostonlarda xalqning hayotiy tajribasi, axloqiy qarashlari va ideal inson haqidagi tasavvurlari badiiy obrazlar orqali yoritilgan bo'lib, ular bugungi kunda ham o'zining tarbiyaviy ahamiyatini yo'qotmagan.

Qoraqalpoq xalq dostonlari, jumladan, "Qirq qiz", "Alpomish", "Qo'blon" kabi epik asarlarda jasorat, vatan himoyasi, el-yurtga sadoqat, do'stlik, adolat va oilaviy qadriyatlar ulug'lanadi. Ushbu asarlar qahramonlarining xatti-harakatlari va hayotiy faoliyati orqali o'quvchi-yoshlar ezgulik va yovuzlikni farqlash, axloqiy me'yorlarga amal qilish hamda jamiyat oldidagi mas'uliyatini anglashni o'rganadilar. Shu jihatdan dostonlar nafaqat badiiy meros, balki yoshlarning ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlovchi muhim pedagogik manba sifatida ham e'tirof etiladi.



Hozirgi kunda tarbiya jarayonida qoraqalpoq dostonlarining tarbiyaviy imkoniyatlaridan tizimli foydalanish, ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish va o'quvchilarning yosh hamda psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayoniga tatbiq etish dolzarb pedagogik masalalardan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan qoraqalpoq dostonlarining o'quvchi-yoshlarga axloqiy ta'lim-tarbiya berishdagi o'rni va pedagogik imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslash muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qoraqalpoq xalq dostonlari ko'p qismli, uzoq asrlar davomida yaratiladi va turli ijtimoiy-siyosiy holatlar kuylanadi. Bu holat ularni bir necha turlarga bo'lib o'rganishni taqozo etadi. Dostonlar dastlab N.M. Jurminskiy va X.T. Zaripov, keyinchalik M. Saidov tomonidan tasnif qilindi^[1].

Qoraqalpoq xalq dostonlari qahramonlik, botirlik, tarixiy, muhabbat va kitobiy dostonlarga bo'linadi. Qoraqalpoq xalq dostonlari rivojlanishida ko'p qismlar bo'lsa-da, ikki qism davom etuvchi ikki bosqich - qahramonlik va muhabbat dostonlari - alohida ajralib turadi.

Xalq dostonlari tuzilishi jihatidan har xil yaratiladi. Turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda kuylab kelinadi. Bu hol ularni ma'lum bir turlarga bo'lib o'rganishni talab etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda qoraqalpoq xalq dostonlarining o'quvchi-yoshlarga axloqiy ta'lim-tarbiya berishdagi pedagogik ahamiyati ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tahlil, tizimli tahlil, tarixiy-pedagogik yondashuv, ilmiy manbalarni o'rganish va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, qoraqalpoq xalq dostonlarining tarbiyaviy mazmuni zamonaviy pedagogik yondashuvlar nuqtai nazaridan baholanib, ularni ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llashning samarali shakl va usullari asoslandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Alpomish dostoni qadimgi qahramonlik eposining yorqin namunalaridan biri. Epik mazmunning qahramonona harakatlarga ega bo'lishi uning bosh xususiyati hisoblanadi. Chunki dostonning butun ahamiyati va asosiy yo'nalishini ana shu xususiyati belgilaydi.

Ko'chmanchilik turmushi va patriarxal ma'naviy munosabatlar bir darajada saqlanib kelayotgan zamonlarda yaratilgan jamiyat va inson hayoti masalalarini o'ziga xos voqelikda qahramonlik va go'zallik haqidagi xalq ideali doirasida kuylagan. "Alpomish" dostoni patriarxal turmushdagi epik bosqichning poetik ko'zgusidir. Doston bir qancha turkiy va ular bilan yaqin yashagan turkiy bo'lmagan xalqlar orasida juda keng tarqalgan. Uning o'zbek, qozoq, qoraqalpoq versiyalari doston variantida, tojik, tatar, boshqird, O'rta Osiyo arablari versiyalari e'taklar tarzida ma'lum.

Qoraqalpoq xalq og'zaki ijodi yosh avlodni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Jumladan, keng qamrovli va chuqur mazmunli xalq dostonlaridir. Ular xalqimizning bir davrlardagi bilim-saviyasi, madaniyati, tarixi, diniy e'tiqodlari, dunyoqarashini aks ettirib, ta'lim-tarbiya berishda katta xizmat qiladi. Ba'zi dostonlar o'zining ma'nosi jihatidan o'quvchilarni botir, jasur, o'z yurtini seva oladigan qilib tarbiyalashda muhim o'rin tutsa, ba'zi dostonlar go'zallikni his etib bilishga, do'stlikka, insonparvarlikka, haqiqiy do'stlikka sadoqat ruhida tarbiyalaydi.

Aniq qilib aytganda, dostonlar orqali o'z xalqimizning o'tmishdagi hayoti, tirikchilik uchun kurashganligini o'rganamiz.

"Alpomish" dostonining bosh qahramoni botir yigit Alpomish bo'lib, botirlikka xos mard yurak, aqlli, odobikromli, fuqarolikka xos barcha yaxshi xislatlar uning o'zida topiladi. Uning botirligi yoshligidanoq ma'lum bo'ladi. O'z tengdoshlariga qaraganda kuchli, polvon gavdali bo'lib o'sadi. Uning botir bola bo'lib o'sganligi dostonida:

Alpomish Boysunning elatida,

*o'n to'rt yoshga to'ldi,
nordek kuchga to'ldi,
er yetib yigit bo'ldi, -*

deb tasvirlanadi^[2]. Alpomishning ikkinchi botirlik belgisi - u o'n to'rt yoshida buloqdan suv ichayotgan asov Boychubor otning dumidan ushlab to'xtatadi va asovni qo'lga o'rgatadi. Ot yigitning qanoti, deydi xalqimiz. Shu aytganday, o'ziga yo'ldosh, qanot bo'ladigan tulpur otni ming yilqining ichidan tanishi va uni dumsiz, tushovsiz ushlashi Alpomishning yoshligidan aqlli, bilimdon, ziyrak, g'ayratli bo'lib yetishganidan darak beradi.

Alpomish obrazi xalqning tilak-orzularini qamragan obraz. Haqiqatda, u har qanday qiyinchiliklarni yengib, xalqqa baxt keltiruvchi, Vatanning butunligini, og'iz birligini ko'z qorachig'iday saqlovchi g'olib qahramon bo'lsa ekan, degan orzu-armonlarning obrazdagi ifodasidir. Alpomishning aqlli, o'yli ishlari va yaxshi xislatlari yosh avlod uchun namuna hisoblanadi. Yoshlar undan o'rganib, el-yurt manfaati uchun kurashchan bo'lishga tarbi-



yalanadi. Xalq pedagogikasidagi ta'lim-tarbiyaviy g'oyalar, ayniqsa, vatanparvarlikka tarbiyalash fikrlari qoraqalpoq xalqi ichida juda keng tarqalgan.

Asrlar davomida ota-bobolarimiz yaratgan aql tarbiyasi haqidagi urf-odat, rasm-rusum, an'analar turmushda keng qo'llanib kelindi. Ayniqsa, donishmandlarimizning pand-nasihatlarini yosh avlodga aqliy tarbiya berish usuli sifatida qo'llaniladi. Xalqimizda shunday hikmatli gap bor. Bir donishmanddan: "Dunyoda inson uchun eng yaxshi narsa nima, eng yomon narsa nima?" - deb so'rabdilar. Shunda donishmand quyidagicha javob qaytaribdi: "Inson uchun dunyoda eng yaxshi narsa go'zal xulq-atvor, tarbiyali, yaxshi fazilatlar bilan nom chiqarish, yomon narsa esa odobsizlik, tarbiyasizlik, dangasalik bilan nom chiqarishdir".

"Qo'blon" dostonining bosh qahramoni Qo'blon. U xalq sevgan botir, eng kuchli, er yurak, odam sifatida haq ko'ngil, elning dushmaniga qarshi hammadan oldin: "Men boraman", - deb o'tlanib, g'alaba qozonadigan qaytmas qahramon. Dostonda uning mardligini, botirligini isbotlash uchun uni boshqa botirlarga qiyoslab ko'rsatadi. Ne bir davr bilan, minglab odamlar bilan bo'lgan hamma jang-u jadallarda Qo'blonning kuchi ustun kelib keladi. Qo'blon dostonidagi asosiy g'oya xalqning ichki va tashqi dushmanlariga qarshi kurashi, ozod va erkin yashash istagidir. Zulm va yovuzliklarning turli ko'rinishlari fosh etiladi.

Shuningdek, yoshlarning ta'lim-tarbiyasi masalasini so'z qiladigan juda boy qoraqalpoq qahramonlik dostoni "Qirq qiz" dostoni ham juda e'tiborga loyiq. Dostonning bosh qahramoni Guloyim. Uning ta'rifi bunday boshlanadi:

"Qadimgi o'tgan zamonda, o'sha zamonning qadimida, qoraqalpoq xalqida, Ota-jo'ri Turkistonda, Sarkop degan shaharda, oz no'g'ayli elatida, laqabi oshgan, davlati toshgan, Alliyor degan boy bo'ldi. To'rt tuligi soz bo'ldi. Dushmandan o'ch olganday, g'ayratli, qaytmas ishiga xaloyiq hayron qolganday, aqlli, keng fe'l, ko'rgan-ning ko'ngli to'lganday olti o'g'li bor edi.

*Alqissa, shundan so'ng,
 Toladek buralgan,
 Oltin kabi bug'langan,
 Jovdir ko'zli, shirin so'zli,
 Yupqa labi qaymoqday,
 Og'zi chiroyli o'ymoqday,
 Pista burun, bodom qovoq,
 Keng qumoqli oq tomoq,
 Hindi tishli, pari tusli,
 Dong'i ketgan jahonga,
 Oltin gavhar boshida,
 O'zi o'n to'rt yoshida,
 Olti o'g'ilning o'rtasida,
 Erka bo'lib u o'sgan,
 Guloyim haqiqiy qiz bo'ldi [3].*

Guloyim er yurakli, aqlli, botir va nihoyatda go'zal qiz bo'lib voyaga yetadi. Uning go'zalligiga, odobliligiga, aqlliligiga hamma lol qoladi. Dostonda bu quyidagicha tasvirlanadi.

*Ko'rgan jonlar qiyofasiga to'ygandek,
 Sarosimaga tushib, aql-hushidan ayrilganday,
 Oysiz tunda u qiz chiqsa tashqariga,
 Qorong'i uyga asil gavhar qo'ygandek,
 Haybatlansa botirlar ham qo'rqqandek,
 Qul bo'lib eshikda o't yoqqandek,
 Nazar solib qiyofasiga qarasang,
 Turqi uning sof oltindan quyilgandek [3].*

"Qirq qiz" dostonining bosh qahramoni botir qiz Guloyim obrazi asosiy o'rinni egallaydi. U jasur, aqlli, namunal sarkarda. Qoraqalpoq xalq shajaralarida qadim zamonlarda ayol-qizlardan Aruvxon, Oqsholpon kabi urug' boshliqlari bo'lganligi haqida ma'lumotlar bor. Botir qiz Guloyimni o'sha qahramon ayol-qizlarning an'anasini davom ettiruvchi, desa bo'ladi.

Xalq ijodiyoti kichik o'smirlarga juda tushunarli bo'lib, bolalar uni tez o'zlashtiradi va o'rganib, tushunib oladi. Chunki ularda xalqimizning orzu-umidlari, hayot tarzi sodda va qiziqarli qilib tasvirlanadi. Shuningdek, ularda tasvirlangan voqea va hodisalar kundalik hayotda ham tez-tez uchrab turadi. Xalq ijodi orqali tarbiyalangan bola o'zini o'rab turgan dunyo va hayot haqiqatini to'g'ri tushunishga o'rganadi.



O'quvchilarga folklor asarlari katta quvonch va zavq bag'ishlaydi, ularda she'r, terma, ertak, topishmoq, maqol-matal, tez aytish va sanamalarni aytib o'rganish ishtiyoqini uyg'otadi. Shuningdek, xalq ijodiyoti o'quvchilarning aqliy va axloqiy sifatlarini shakllantiradi va rivojlantiradi. Qadimgi davrlardan boshlab, Sharq xalqlarida, shulardan biri qoraqalpoq xalqida, aql, axloq-odob va insoniylik masalalari tarbiyada asosiy o'rin egallab, xalq bolalarni aqliy rivojlantirishda, odob-axloqqa o'rgatishda asosan o'zlarining turmush tajribalariga tayanib kelgan.

Ota-bobolarimizning odob-axloq an'analari har tomonlama tarbiyani o'z ichiga olib, ularga odob va bilim o'rgatish zarurligini tushuntiradi. Shuningdek, tarbiyaviy urf-odatlarida odob va axloqsizlik farqini anglab bilib, ularni qarama-qarshi qiyoslab ajratish orqali odoblilikning nima ekanligini tushuntirish usullarini o'ylab topgan. Xalq: "Odobning nima ekanini odobsizni ko'rganda bilasan", - deb o'rgatib borgan ^[4].

"Odoblilik degan - shunday bir boylikki, uni qancha ko'p sarflasang, seni shuncha kamolga keltiradi", - degan xalq donoligi o'quvchi-yoshlarni odoblilikka tarbiyalashning eng muhim shartlari qatoriga ularning fe'l-atvori, or-nomusi, odamgarchiligi, qanoatliligini kiritadi. "Xalqimizda tolni qanday eksang, shunday ko'karadi", - degan dono gap aytiladi. Shuningdek, yoshlarning ham yosh nihol kabi yaxshi o'sishi uni parvarish qilish, ta'lim-tarbiyasiga bog'liq bo'ladi ^[5].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, qoraqalpoq xalq dostonlari o'quvchi-yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning muhim vositasi hisoblanadi. Dostonlarda aks etgan vatanparvarlik, halollik, jasorat, mehnatsevarlik va insonparvarlik g'oyalari yoshlarning axloqiy fazilatlarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Ularni tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik metodlar bilan uyg'unlashtirib qo'llash ta'lim samaradorligini oshiradi. Shuningdek, dostonlar o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash, tarixiy merosga hurmat va ijtimoiy mas'uliyat tuyg'usini rivojlantiradi. Shu bois qoraqalpoq xalq dostonlaridan tarbiya jarayonida tizimli va maqsadli foydalanish axloqiy barkamol avlodni voyaga yetkazishda muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. S.Axmetov, K.Mámbetov "Qaraqalpaq ádebiyati" Nókis: "Bilim", 1995 56-betler
2. Alpamis: Ógiz jıraw variantı / Qallı Ayımbetov tárepinen 1934-jılı jazıp alınğan. - Nókis: Qaraqalpaqstan baspası, 1999. - 23-24-b.
3. Qırq qız: Qoraqalpoq xalq dostoni. - Nukus: Qoraqalpog'iston, 1980. - B. 78.
4. Abdimuratov. P.S. Qaraqalpaq xalıq pedagogikası. Sabaqlıq. Nókis, "Bilim" baspası, 2025.
5. Матмуратова Г.К, Есемуратова Т.А. Условия воспитания детей в семье на основе национальных духовных ценностей. Материалы конференции Современная психология и педагогика: проблемы и решения. Том1, №1(87) 45-48 Изд. ООО "СиБАК"

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.